

**Muxayyoxon Axmedova Tadjimuxamadovna**  
ADCHTI oqituvchisi

---

## **CHET TILI O'RGANISHDA MONOLINGVAL LUG'ATDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** Maqolada izohli lug'atlarning turlari, ularning qo'llanish usullari haqida gap ketadi. Izohli lug'atlar o'zbek, rus va ingliz tillarida qo'llanishiga qarab farq qiladi.

**Kalit so'zlar:** ibora, so'z birikmasi, omonim lug'at, morfem lug'at, monolingual learner's dictionary (MLD) (bir tilli o'rganuvchilar uchun lug'at) va explanatory dictionary or defining dictionary (tushuntirishga oid lug'at).

---

Monolingval lug'at lingvistik lug'at bo'lib, unda o'z ichiga olgan har bir bosh so'zning ma'nosi belgilanadi va qayd etiladi. Bu ma'nolarga izoh beriladi, ya'ni tushuntiriladi. Shu xususiyatlari mujassam bo'lgani uchun uni –izohli lug'at deb ataladi.

Izohli lug'atlarda lug'aviy birlik deb sanaladigan iboralarning ma'nosi izohlanadi. Lug'atda berilgan bosh so'z ishtirokida turli xil iboralar, so'z birikmalar hosil bo'ladi: "chehra" yoki "ochiq" so'zlariga berilgan maqolalarning birida albatta "chehrasi ochiq" iborasining ma'nosi belgilanadi va izohlanadi. Lingvistik lug'atlarning bir necha turlari mavjud: terminologik, morfem lug'atlar, paronimlar lug'ati, tarjima lug'atlari va boshqalar. Ular o'zlarining lug'aviy birliklarning ma'nolarini belgilanishi, qayd etilishi va izohlanishi bo'yicha izohli lug'atlar qatoriga kiradi. Bu lug'atlar lingvistik lug'atning qaysi turiga mansubligiga va izohli ekanligiga ko'ra nomlanadi. Masalan, "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati", "O'zbek tilining morfem lug'ati" va boshqalar.

Izohli lug'atlar rus tilida "Толковый словарь" deyiladi va xuddi o'zbek tilidek so'zlarning leksik ma'nolarini bildiradi. Unda so'z faqat bir marta talqin etiladi so'z birikmalari esa izohli lug'atda bir necha marta beriladi. Umuman olganda, o'zbek tilda ham rus tilida ham izohli lug'atlar o'sha til egalari uchun mo'ljallanganidir. Rus tilining mashhur izohli lug'atlari: 1) *Толковый словарь живого великорусского языка* В. И. Даля (1863—1866) «Толковый» so'zi birinchi bo'lib izohli lug'atga nisbatan shu asrning nomi uchun ishlatilgan; 2) *Толковый словарь русского языка* (1935—1940) Д. Н. Ушаков tahriri bo'yicha — 4-jildidan iborat nasr. 3) *Большой толковый словарь русского языка* (1998) С. А. Кузнецов tahriri asosida.

Ingliz tilida izohli lug'atlar ikki turga bo'linadi: *monolingual learner's dictionary (MLD)* (bir tilli o'rganuvchilar uchun lug'at) va *explanatory dictionary or defining dictionary* (tushuntirishga oid lug'at).

O'rganuvchilar uchun bir tilli lug'atlar (MLD) til o'rganayotgan o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, o'rganayotgan tilida ko'proq tajribaga ega bo'lish uchun ikki tillik lug'atdan bir tillik lug'atga o'tish maqsadga muvofiq sanalgan. Biroq ikkinchi tur izohli lug'at til egalari, ya'ni ingliz tili ona til hisoblanganlar uchun mo'ljallanganidir. Ular o'rganuvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. O'rganuvchilar uchun bir tillik lug'atlar til grammatikasi, tildan foydalanishda yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklar, so'z birikmalar haqida axborot beradi.

O'rganuvchilar uchun bir tilli lug'at (O'BL) birinchi bo'lib 1935 yilda Maykl West va Jeym Enicottning 1490 so'zdan iborat cheklangan-- *New Method Dictionary* (Yangi metodga asoslangan) ingliz tilida kichik lug'ati bo'lgan.

Ingliz tilini chuqur o'rganuvchilari uchun eng mashhur lug'at hozirda o'nlab nashrda chop etilgan *Oxford Advanced Learner's Dictionary* hisoblanadi. Dastlab u Yaponiyada 1942 yilda

A.S. Hornbay tomonidan yozilgan *The Idiomatic and Syntactic Dictionary of English (Ingliz tilining idiomatik va sintaktik lug'ati)* sifatida chop etilgan. Keyinchalik u *A Learner's Dictionary of Current English (Zamonaviy Ingliz tilining o'rganuvchilari uchun lug'at)* bo'lib 1948 yildan boshlab qayta nashr etila boshlagan.

1978 yilda nashr etilgan *Longman Dictionary of Contemporary English* lug'ati maydonga kelishi lug'atshunoslikda o'zining hozirda me'yor funktsiyasini bajaruvchi, o'sha vaqtlarda cheklangan izohlardan iborat sozlarni o'z ichiga olishi bilan avvalgilardan farq qilgan. Hozirgi kunda ingliz tilini chuqur o'rganuvchilar uchun O'BL ning *Oxford* va *Longman* bilan birga oltita asosiy turi mavjud: 1)*Collins Cobuild English Dictionary*, birinchi marta 1987yilda nashr etilgan; 2)*Cambridge International Dictionary of English*, 1995, hozirda the *Cambridge Advanced Learner's Dictionary* sifatida nashr etiladi;3)*Macmillan English Dictionary for Advanced Learners*, 2002; 4) *Merriam-Webster's Advanced Learner's English Dictionary*, 2008. Bu lug'atlar bosma va onlayn holda mavjuddir.

1980 yildan boshlab ingliz tilida yaratilgan O'BL lar lug'atshunoslik sohasida lug'at yaratish va so'zlar tasvirlangan til aspektlarini matn korpusini yaratishdagi dasturlash bo'yicha eng innovatsion usuli hisoblanadi.

O'zbek tilining nisbatan mukammal Izohli lug'ati tarixda birinchi marta O'zbekiston FA Til va adabiyot institutida tayyorlanib (mualliflari: S. F. Akobirov, T. A. Aliqulov, S. I. Ibrohimov, N. M. Mamatov, 3. M. Mirtojyev, G. N. Mixaylov, A. R. Rustamov, A. T. Xo'jaho-nov, A. P. Hojiyev), 3. M. Ma'rufov tahriri ostida nashr etildi (Moskva, 1981). Mazkur lug'at 2 jildli bo'lib, 60000 so'z va so'z birikmasini qamrab olgan

*Козырев В. А., Черняк В. Д. Истоки и традиции русской лексикографии // Лексикография русского языка. — СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2015. Толковые словари // Большая российская энциклопедия. Том 32. — М., 2016. Sinclair, J.M. (Ed.), *Looking Up: an account of the COBUILD project*, Collins, 1987. Rundell, M. and Kilgarriff, A., 'Automating the creation of dictionaries: where will it all end?', in Meunier F., De Cock S., Gilquin G. and Paquot M. (Eds), *A Taste for Corpora. A tribute to Professor Sylviane Granger*. Benjamins, 2011. Kilgarriff, A. & Rundell, M. Lexical profiling software and its lexicographic applications – a case study. In Braasch and Povlsen (Eds.) *Proceedings of the Tenth Euralex Congress*, University of Copenhagen, Denmark. 2004. Nesi, H., 'Dictionaries in electronic form', in Cowie, A.P. (Ed.), *The Oxford History of English Lexicography*, Oxford University Press 2009. Lew, R., Introduction to Special Issue on Dictionary Use, *International Journal of Lexicography*, 24/1, 2011. Rundell, M., 'Recent trends in English pedagogical lexicography', *International Journal of Lexicography*, 11/4, 1998. Bejoint, H., *The Lexicography of English*. Oxford University Press, 2010. Cowie, A.P., *English Dictionaries for Foreign Learners*, Oxford University Press 1999*